

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHI FAOLIYATINING MAZMUNI

Rahmonberdiyeva Gulnoza Shavkat qizi
JDPI, Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6881244>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotida tarbiyachi faoliyatining mazmuni xaqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: ilmiy faollik, ijodkorlik, innovatsiya, erkin fikrlash, zamonaviy vositalar, ilmiy salohiyat, individulallik

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyotini jadallashtirish, inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hamdir. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan avlod etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Maktabgacha ta'lism tashkilotida, yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi.

Shu sababli xam, uzlusiz ta'lism tizimida shaxsning ma'naviy-ma'rifiy shakllanishi bilan boglik savollarga javob berish, uzlusiz ta'lism tizimida faoliyat kursatayotgan xodimlarni shu yunalishdagi ko'nikmaa va malakalarini oshirishga karatilgan amaliy tavsiyalar berish, ta'lism-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublarini taklif etish, shuningdek, mashgulotlarni yakka, juftlik, kichik guruxlar va jamoa tartibida tashkil qilish va o'tkazish xamda tarbyalanuvchilarini tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bag'ishlangan kerakli uslubiy tavsiyalar va maslahatlarni pedagog kadrlarga yetkazish, hozirgi kunning dolzarb vazifasi xisoblanadi.

Zamonaviy ta'lism tizimining vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir. Bolalarni ta'lism jarayoniga jalb etish qiziqtirish juda muxim. Maktabgacha ta'lism tashkilotlaridada bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multifiksiyali va jozibali, eng muhimi bola yoshiga mos bo'lishi zarur. Maktabgacha ta'lism tashkilotida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarini ko'zata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak.

Davlat ahamiyatiga molik bunday vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lism tashkiloti muhim rol o'ynaydi. Buning uchun har bir tarbiyachi o'zini talab

va nazorat qila bilishi davlatimiz maktabgacha ta’lim tashkiloti oldiga qo’yan talablarni amalga oshirishi va pedagogik qobiliyaga va maxoratga ega bo’lishlari shart. Bu kabi talablardan kelib chiqqan xolda, bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun Davlat talablari yaratildi. O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari, O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son «2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilab beradi.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o’z mas’uliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o’z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o’rtoqlarini o’sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo’lishi, o’zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo’lishi, umumiyligi va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarini tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tarbiyachilar bolalarga talim berishda pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi induviduallikning yorqin ko’rinishi sifatida kompetensiyavy yondashuv asosida ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari bolalarni aynan bir xil, o’xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta’minlashlari uchun ularning o’ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko’rsatkichlari to’g’risida to’liq tasavvurga ega bo’lishlari zarur. Zero, pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishi induvidualligiga asoslanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. T L.R.Mirjalolova Mashg’ulotlarni o’tkazish metodikasi moduli T.: Iste’dod, 2018. – 257 b
2. Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan davlat talablari. -T.: Kvinta print. 2016 y.
3. G.Yo’ldosheva. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Maruzalar matni. Qarshi, 2008.